



## KORPORATIV BOSHQARUVNING TIJORAT BANKLARIDAGI TASHKILIY MEXANIZMINI FAOLLASHTIRISH TAMOYILLARI

Teshabayev Nodir Shuxratovich

*Biznes va tadbirkorlik oly maktabi "Biznesni boshqarish" MBA magistratura  
mutaxassisligi tinglovchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada tijorat banklarida korporativ nazorat tizimini tashkil etish masalalari tahlil qilingan. korporativ nazorat tizimini joriy etish borasida olib borilgan tadqiqot ishlarida ilgari surilgan fikr va mulohazalar bilan yaqindan tanishib chiqilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida korporativ nazorat tizimini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** korporativ nazorat, aksiyadorlik jamiyati, komplaens, korrupsiya, kuzatuv kengashi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, bank boshqaruvi, korporativ boshqaruvi.

### KIRISH

Ma'lumki, Respublikamiz bank sektori rivojlanishining joriy holatida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi muammosi bilan birgalikda davlat ishtirokidagi banklarda menejment va risklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi namoyon bo'lmoqda. Tijorat banklarida korporativ boshqaruvni to'g'ri yo'lga qo'yish orqali xususan, davlat ishtirokidagi tijorat banklari faoliyati shaffofligi va samaradorligini oshirish, xususan, investorlar uchun jozibadorligini ta'minlashga erishish mumkin.

### ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida korporativ nazorat tizimi nisbatan yangi jumla hisoblanadi va korporativ nazorat tizimi bo'yicha asosan xorij iqtisodchi olimlari tomonidan yozilgan o'quv qo'llanmalar, ilmiy maqolalar va uslubiy materiallardan keng foydalanildi.



Tijorat banklarida korporativ nazorat tizimini samarali boshqarish masalalari bo'yicha taniqli xorijiy iqtisodchi olimlar - Shidlovskaya M.S., Sanches I., Shulekovskiy V., M.Dili, Astraxanseva I.A., Dubov D.A., Frepik A., Aleshin M.M., Pustovalova Ye., Dadalko V.A., Timofeev Ye.A. va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Korporativ nazorat tizimini tashkil etishning huquqiy asoslarini yaratish borasidabir qator normativ-huquqiy hujjatlar amalga kiritildi. Mazkur sohani rivojlantirishgashaxsan davlat rahbarining alohida e'tibor qaratayotganligi sohaning rivojlanishi yo'lidagi eng muhim omil sanaladi.

Shundan kelib chiqib korporativ nazorat tizimini tashkil etishning huquqiy asoslarini yaratish borasida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar amalga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimchachora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilingani buning amaliy tasdig'idi. Hujjat bilan qator islohotlarni tizimli ravishda amalga oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilabberilgan.

Xususan, 2020–2021 yillarda barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi ("komplaens-nazorat") ni bosqichma-bosqich joriy etish vazifasi qat'iy belgilangan. Xorijiy amaliyot tahlili bozor iqtisodiyoti qonunlarga asoslangan mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat va xususiy sektor ishtirokchilarining xalqaro standartlar, qonun hujjatlari va boshqa zamонави usullarga muvofiq samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim vositalardan biri o'z tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komplaens nazorat (compliance control) tizimini tashkil etish ekanini ko'rsatadi. Zero mazkur yondashuv davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish,



qonunbuzilishi va korrupsiyaga oid huquqbazarliklar haqida xabar berishni o'zida mujassam etganprofilaktik tizimdir.

Korporativ boshqaruvni bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirib borish, ishlab chiqarish jarayoniga investitsiyalarni jalb qilish, jahon andozalari talabiga mos keladigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan texnologiyalarni qo'llash asosida, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydi.

Korporativ boshqaruvni takomillashtirish masalalarining dolzarbligi oshishi ko'pchilikbanklarda ham yuz bermoqda.Korporativ boshqaruv tizimi bank boshqaruvida o'z o'rni va ahamiyatiga ega. Chunki ushbu boshqaruv bankning iqtisodiy natijalariga ta'sir etadi. Banklar jamiyatning jamg'armalarini to'playdi va ularni joylashtiradi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda banklar firmalar uchun juda muhim tashqi moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Shuningdek, banklar moliyaviy bozorlarga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniy yo'q firmalarning korporativ boshqaruv samaradorligiga ta'sir etadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki,samarali korporativ boshqaruvning asosi quyidagilar hisoblanadi[6]:

- bankning ichki hujjalarda belgilanadigan vakolat va vazifalarning aniq tarzda taqsimlanishi;
- yetarli darajadagi hisobdorlik;
- o'zaro nazorat qilish hamda bank uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan qarorlar qabul qilinishining oldini olishni ta'minlovchi,bank boshqaruvi organlari va tarkibiy tuzilmalar o'rtasidagi vakolatlarning taqsimlanishi;
- o'zining vakolatlari va vazifalarini yaxshi biluvchi, funksional vazifalarini bajarishda yuqori darajadagi ishbilarmonlik va odob-axloq qoidalariga rioya etuvchi,bank kuzatuv kengashining va ijroiyaorganining yuqori malakali a'zolari mavjudligi.

Korporativ boshqaruvning banklar rivojlanishidagi muhim rolini quyidagilarda ko'rishmumkin[1]:

- moliyalashtirish manbalarini olish imkoniyatini kengaytiradi, bu esa, investitsiya, iqtisodiy o'sish, ish bilan bandlikni oshiradi.



- kapital qiymatining pasayishi va bankning yuqori baholanishiga erishishga olib keladi, bu o‘z navbatida, investitsiya va iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi.

- operatsion faoliyatning yaxshilanishiga ta’sir etadi, bu resurslarning yaxshiroq joylashishi, samarali boshqaruv, boylikning yaratilishini kengaytiradi.

- ulushdorlar bilan yaxshiroq munosabatlarni ta’minlaydi, umumiy muhitning yaxshilanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Bank sektoridagi korporativ boshqaruvning muhimligini e’tiborga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki muammoga katta e’tibor qaratib, ushbu masalani bank tizimining strategik rivojlanish maqsadi sifatida qaraydi. Bunda asosiy e’tibor ichki nazorat tizimini takomillashtirish, korporativ boshqaruvning shaffofligini orttirish va mulkdorlar huquqini ta’minlashga qaratiladi.

## XULOSA VA MUNOZARA

Bugungi kunda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi, risklarga bardoshliligi, risk buferining shakllanishida korporativ boshqaruvni rivojlantirishni tizimli yo‘lga qo‘yish, ularda kuzatuv kengashining rolini oshirish zarurati tug‘ilmoqda.

Bunda, tijorat banklari kuzatuv kengashi tomonidan risklarni boshqarish bo‘yicha quyidagi asosiy funksiyalarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

- ✓ bankning tasdiqlangan risk appetiti bilan muvofiq ravishda bankning umumiyligini, biznes maqsadlari va strategiyasini belgilaydi va ularning bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatadi;
- ✓ risklarni boshqarish va komplaens nazorat tuzilmasi boshliqlarini ishga tayinlash va ishdan bo‘shatishni tasdiqlaydi;
- ✓ davriy ravishda bank tomonidan ishlab chiqilgan va amaldagi riskni o‘lchash usullari, shu jumladan, GEP tahlillari va stress-testni ko‘rib chiqadi;
- ✓ riskni boshqarish to‘g‘risida olgan ma’lumotlarining aniqligi va ishonchlilikinita’minlaydi;
- ✓ manfaatlar to‘qnashuvlarining oldini olish choralarini ko‘radi, ularni hal etilishiga ko‘maklashadi va Markaziy bankka bankda yuzaga kelayotgan manfaatlar



to‘qnashuvi hakida ma’lum qiladi;

- ✓ qonunchilikda belgilangan boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

## ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 15 yanvardagi "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi Qonuni;
2. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 6 maydag‘i "Aksiyadorlik jamiyatlar va aksiyadorlarning xuquqlarini ximoya qilish to‘g‘risida"gi Qonuni;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi "O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiya qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-6013-sonli Farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydag‘i "2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-5992-son Farmoni
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2021 yil 14 yanvardagi "Bank xizmatlari iste’molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risida"gi 3030-sonli Nizom
6. S.Qudratov. Bank tizimida korporativ boshqaruvin takomillashtirish.Toshkent "Akademnashr" 2016 y. 176-bet.